

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RADJIBAYEV DAVRAN OKTAMBAYEVICH

**TRANSPORT MASHINASOZLIGI UCHUN LOKOMOTIVLARNING
MURAKKAB KONFIGURATSIYALI RAMA KONSTRUKSIYALARINI
DINAMIK MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH USULLARINI
ISHLAB CHIQISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract Doctoral (DSc) dissertation

Radjibayev Davran Oktambayevich

Transport mashinasozligi uchun lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali rama konstruksiyalarini dinamik mustahkamlikka hisoblash usullarini ishlab chiqish..... 3

Раджибаев Давран Октамбаевич

Разработка методов расчета на динамическую прочность рамных конструкций локомотивов сложной конфигурации для транспортного машиностроения..... 29

Radjibaev Davran Oktambayevich

Development of methods for calculating the dynamic strength of frame structures of locomotives of complex configuration for transport engineering..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RADJIBAYEV DAVRAN OKTAMBAYEVICH

**TRANSPORT MASHINASOZLIGI UCHUN LOKOMOTIVLARNING
MURAKKAB KONFIGURATSIYALI RAMA KONSTRUKSIYALARINI
DINAMIK MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH USULLARINI
ISHLAB CHIQISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.DSc/T683 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xromova Galina Alekseyevna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tretyakov Aleksandr Vladimirovich
texnika fanlari doktori, professor

Pecherskiy Vladimir Nikolayevich
texnika fanlari doktori, professor

Adilova Ziyoda Gafurdjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil _ 27. _yanvar soat 10⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « _____ » _____ kun tarqatildi.
(2024-yil « _____ » _____ daqi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



R.V. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Y.O. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda harakat tarkibining yangi avlodini yaratishda, shuningdek mavjudlarini modernizatsiya qilishda harakat tezliklarining oshib borishini hisobga olgan holda lokomotivlarning dinamik sifatlarini yaxshilash va ularning xizmat muddatini uzaytirish uchun mustahkam va ishonchli rama konstruksiyalarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Joriy ta'mirlashlar davrida aniqlangan lokomotivlar aravacha ramalari va bosh ramasidagi yoriqlar tahlil qilinganda, hajmi oshib va rivojlanib boruvchi charchoq yoriqlarining katta miqdori aniqlanib, ular xavfli kesimlarni zaiflashtirishi ma'lum bo'ldi. Amaldagi me'yorlarda (masalan, ST-336 yo'riqnomasi¹) murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotivlarning rama konstruksiyalariga tushadigan tortish kuchlarining murakkab yuklanganligi dinamik ta'siri e'tiborga olinmagan. Bunda kuzovning bosh ramasi va lokomotiv aravachalari ramalarining umumiy kuchlanganlik holati murakkab konfiguratsiyali rama karkaslarida yuzaga keluvchi kuchlarning bo'ylama, ko'ndalang va burovchi dinamik tashkil etuvchilari hamda modernizatsiyalashda kuchaytiruvchi qoplagichlarni o'rnatishning maqbul konstruksiyasi va haroratning keskin o'zgarishidan kelib chiqadigan kontaktli kuchlanishlarga sezilarli darajada bog'liq.

Jahonda lokomotivlarning murakkab fazoviy konfiguratsiyaga ega kuzovlari bosh ramasi va aravachalar ramasi, kontaktli dinamik hamda tortish kuchining bo'ylama, ko'ndalang va burovchi tashkil etuvchilarini hisobga olgan holda ishonchligi va tebranishlari nazariyasi masalalari, shuningdek ularni maqbul loyihalashtirish va modernizatsiyalash usullari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu yo'nalishda ustuvor hisoblangan bir qator tadqiqotlarni o'tkazish, jumladan dinamik yuklanishlar ta'sirini aniqlashning mavjud usullarini takomillashtirish, shuningdek rama konstruksiyalarini modernizatsiya qilish imkonini beradigan yangi usullarni yaratish zarur. Konstruksiyalarni modernizatsiyalash jarayonida kontaktli harorat deformatsiyalarini qayd etish, shuningdek dinamik jarayonlarni modellashtirishda hisoblarning aniqligini oshirishga mo'ljallangan zamonaviy dasturiy algoritmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida transport tizimini, jumladan temir yo'l transportini rivojlantirish, xususan infratuzilmani rivojlantirish, poyezdlar harakati tezligini oshirish, harakatlanuvchi tarkibni yangilash va mavjudlarining xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha muhim choralar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., transport va logistika xizmatlari bozori hamda infratuzilmasini rivojlantirish ..., transport tizimida "yashil yo'laklar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ..., xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport sohalaridagi yaqin hamkorlikni yuqori bosqichga olib chiqish"² bo'yicha muhim maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishish, jumladan elektrovozlar mavjud parkining xizmat muddatini uzaytirgan holda uning kapital tiklovchi ta'mirini o'tkazish, shuningdek undagi uzellarni takomillashtirish bo'yicha yangi texnik yechimlarni joriy etish bilan birga

¹ <https://files.stroyinf.ru/Data2/1/4293728/4293728149.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

texnologik jarayonlarni yangilash va ishlab chiqish, elektrovozlarning ishonchligi va mustahkamligini oshirish maqsadida kuchaytiruvchi qoplagichlarni o'rnatish orqali elektrovozlar kuzovlari bosh ramalarining to'g'ri hisoblangan modernizatsiya jarayonini amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi "Transport to'g'risida"gi 706-sonli hamda 1999-yil 15-apreldagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi 766-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019-yil 1-fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-sonli, 2017-yil 23-avgustdagi "Zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarni yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3238-sonli Farmonlari, 2017-yil 2-dekabrda "2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-sonli, 2020-yil 4-maydagi "Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4703-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik", ITD-3 – "Energetika, energiya, resurs tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Transport vositalari konstruksiyalarining zo'riqqan-deformatsiyalangan holatini tahlil qilish sohasidagi tadqiqotlar dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlarda, universitetlarda va ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilmoqda, jumladan Wessex Institute of Technology (Buyuk Britaniya), University of Naples di Napoli (Italiya), Reson University (Kanada), University of La Coruna (Ispaniya), Saga University (Yaponiya). Qo'yilgan vazifalar bo'yicha MDH mamlakatlaridagi nufuzli ilmiy maktablar va Rossiya transport universiteti (MIIT) (Rossiya), Peterburg davlat temir yo'l universiteti, Moskva aviatsiya instituti, Butun Rossiya temir yo'l transportining ilmiy-tadqiqot instituti, "ВНИКТИ" OAJ, "Rossiya temir yo'llari" OAJ, Omsk davlat temir yo'l universiteti, Rostov davlat temir yo'l universiteti (Rossiya), Olmaota energetika va aloqa universiteti (Qozog'iston), Raqamli iqtisodiyot va huquq instituti (Qozog'iston), Toshkent davlat transport universiteti (O'zbekiston) hamda temir yo'l transporti muhandislarining boshqa ta'lim va ilmiy markazlari yirik olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Aravachalar ramalari va harakatlanuvchi tarkib kuzovlaridagi bosh ramalarning mustahkamligi va ishonchligini o'rganish bilan bog'liq murakkab vazifalarni hal qilishda Rossiya temir yo'l transporti ilmiy-tadqiqot instituti (TSNII

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.sciencedirect.com/>, <https://www.elsevier.com/search-results?labels=journals>, <https://wsu.edu/>, <http://en.njtu.edu.cn/>, <http://www.iitkgp.ac.in/>, <https://rut-miit.ru>, <https://www.tu-braunschweig.de/>, <https://www.ncl.ac.uk/newrail/people/tsg/>, <http://www.pgups.ru/>, <https://tstu.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

MPS) va Rossiya vagonsozlik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari o'z hissasini qo'shib, ular tomonidan mazkur muammo bo'yicha nazariy-eksperimental tadqiqotlar olib borilgan.

Jahonda transport mashinasozligi uchun harakatlanuvchi tarkib ramalarining zo'riqqan-deformatsiyalangan holatini hisoblash usullarini takomillashtirish hamda ularni funksional diagnostika qilish texnik vositalarini ishlab chiqish uchun nazariy tadqiqot usullaridan foydalangan holda natijalarni EHMda raqamli qayta ishlash bilan birga dinamik mustahkamlikka hisoblash asosida konstruksiyalarning zo'riqqan-deformatsiyalangan holati bo'yicha o'tkazilgan tajriba ma'lumotlarini bir vaqtning o'zida qo'llash ko'zda tutilgan. Bunda raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi, jumladan lokomotivlarning mexanik qismlarini hisoblashda MATHCAD dasturlash muhiti hamda lokomotivlar mexanik qismlaridagi uzellar va detallarning maqbul parametrlarini tanlashda chegaraviy elementlar usuli (the Boundary Element Technology) qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan barcha ishlarda silindrsimon konstruksiyalarda issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoni o'rganiladi, biroq payvandlashda elektrovoz ramalarining metallida yuzaga keladigan ichki kuchlanish va deformatsiyalar, shuningdek statik va dinamik yuklanishlarning tashqi yuklanganligi hisobga olinmaydi. Shu bois kuchaytiruvchi qoplagichlarni o'rnatish lokomotiv ramalarini modernizatsiya qilishning to'g'ri hisoblangan jarayonini amalga oshirish, ularning ishonchligi va chidamliligini oshirish, shuningdek xizmat muddatini uzaytirish imkonini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Transport vositalaridagi modernizatsiya qilingan rama konstruksiyalarining tebranishlari jarayonini o'rganish bo'yicha nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari N.P. Petrov, I.Ye. Jukovskiy, I.M. Babakov, S.P. Timoshenko, Y.G. Panovkolar tomonidan olib borilgan bo'lib, keyinchalik A.M. Goditskiy-Svirko, M.V. Vinokurov, M.F. Verigo, S.V. Vershinskiy, V.A. Lazaryan, V. B. Medellar tadqiqotlarida takomillashtirilgan. I.P. Kiselev, E.S. Oganyan, I.S. Biryukov, A.N. Savoskin, A.V. Gorskiy, V.A. Chetvergov, V.I. Kiselev, M.A. Ibragimov va boshqalar tadqiqotlarida katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida harakatlanuvchi tarkib ramalarining mustahkamligini dinamik hisoblash muammolari bilan A.D. Glushenko, professorlar SH.S. Fayzibayev, G.A. Xromova, A.A. Shermuxamedov, R.V. Raximov, Z.G. Muxamedova hamda ularning shogirdlari shug'ullangan.

Shuningdek, dunyodagi silindrsimon yuzalar ko'rinishidagi lokomotiv ramalarining kuchlanganlik-deformatsion holatiga harorat maydonlarining ta'siri ostida kontaktli tadqiqotlar ham muhim bo'lib, I.M. Babakov, S.P. Timoshenko, D.H. Young, W. Weaver, A.S. Volmira, E.I. Grigolyuka, S.M. Wahid, C.V. Madhusudana, L. Wang, Q. Zhang, J. Wang, M.M. Yovanovich va boshqalarning asarlari taalluqlidir, ular ikki guruhga bo'linadi, bunda birinchi guruh asosan nazariyani rivojlantirishga bag'ishlangan va asosan fundamental masalalarga bag'ishlangan, ikkinchi guruh esa eksperimental tadqiqotlarga asoslangan va amaliy tadqiqotlar sifatida tasniflanadi.

Shu bilan birga, tashqi tebranishlarning kompleks ta'sirini hisobga olgan holda murakkab konfiguratsiyadagi lokomotivlar tayanch ramalarining dinamikasini modellashtirish va foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida tebranish jarayonlarini optimallashtirish usullarini takomillashtirishga va diagnostikaning takomillashtirilgan usulini ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Kuzovlar, ularning tayanch

ramalari, resor osmasi va yurgizuvchi qismdagi egiluvchi va burovchi tebranishlar charchoqqa chidamlilik va ishonchlilikning keskin pasayishiga olib keladi. Shunga bog‘liq holda harakatlanuvchi tarkibni modernizatsiya qilish jarayonida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo‘linmalarida yaqin 8-10 yil ichida ularning ishonchli ishlashini ta‘minlash uchun mustahkamlangan mexanik uzellar va detallarning yetarli darajada qattiqligi ta‘minlanishi lozim.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rajasiga kiritilgan “Transport mashinasozligi uchun lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali rama konstruksiyalarini dinamik mustahkamlikka hisoblash” (2018-2020) mavzusidagi BV-Atex-2018-19-sonli amaliy granti, ““O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UKda VL80 elektrovozlarini kapital tiklovchi ta‘mirlash texnologik jarayonini ishlab chiqish” (2020-2022) mavzusidagi 22-sonli xo‘jalik shartnomasiga kiritilgan loyihalar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi transport mashinasozligi uchun lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali rama konstruksiyalarini dinamik mustahkamlikka hisoblash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lokomotivlarning tayanch ekvivalent karkasi tebranishlari nazariyasining zamonaviy holati hamda qoldiq resursni aniqlash va modernizatsiya qilish bo‘yicha dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish;

kuzovlar bosh ramalari va lokomotivlar aravachalari ramalarini mustahkamlikka va charchoqqa dinamik sinash uchun mo‘ljallangan stendlarning istiqbolli konstruksiyalari bo‘yicha patentli adabiyotlar sharhini amalga oshirish;

“O‘zbekiston” lokomotiv deposida amalga oshirilgan tekshiruv natijalari asosida VL80 elektrovozlarining ishdan chiqishiga oid ekspluatatsion ma‘lumotlarni ehtimoliy-statistik qayta ishlash metodikasini ishlab chiqish;

oshirilgan harakat tezliklarida bo‘ylama, ko‘ndalang va burovchi kuchlarning ta‘sirini hisobga olgan holda fazoviy tizim sifatidagi murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotivlar aravachalarining rama konstruksiyasi tebranishlarini matematik modellashtirish;

transport mashinasozligi uchun ekspluatatsiyada mavjud hisob rejimlarini e‘tiborga olgan holda oshirilgan tezliklarda murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotiv kuzovining bosh ramasi konstruksiyasi tebranishlarini matematik modellashtirish;

aravachalar ramalari va kuzovlar bosh ramalari kesimlarining zo‘riqqan-deformatsiyalangan holatini modellashtirish bo‘yicha raqamli tadqiqotlarni olib borishga mo‘ljallangan algoritmlar va dasturlarni ishlab chiqish;

VL80s elektrovozlarini modernizatsiya qilishda ishlab chiqilgan dinamik modellar va raqamli algoritmlar hamda dasturlarni amaliy sinovdan o‘tkazish va joriy etish;

kapital tiklovchi ta‘mir jarayonida lokomotivlarni modernizatsiya qilishda qo‘llaniladigan “VL80s elektrovozlaridan foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida ularni ekspert texnik diagnostikalash metodikasi”ni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda foydalaniladigan, aynan VL80 va VL80s elektrovozlarining modernizatsiya qilinayotgan aravacha ramasi va kuzovining bosh ramasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida oshirilgan harakat tezliklarida yuklanishning bo‘ylama, ko‘ndalang va burovchi tashkil etuvchilarini hamda kapital tiklovchi ta‘mir jarayonida kontakt dinamik va issiqlik ta‘sirini hisobga olgan holda aravachalar ramalari va elektrovozlar kuzovlarining bosh ramalari tebranishlarini matematik modellashtirish usullari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matritsali tahlil va imitatsion modellashtirish, matematik statistika, shuningdek raqamli usullar, jumladan Fyurje usuli, bo‘lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli, iteratsiya usuli va chegaraviy elementlar usuli (the Boundary Element Technology)dan foydalanilgan. Raqamli tadqiqotlar C# tilida va MATHCAD 14 (15) dasturida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuklanishning turli rejimlarida harakatlanish jarayonida elektrovozlar ramalarini tabiiy dinamik sinovdan o‘tkazishda ularning ishdan chiqishiga oid ekspluatatsion ma‘lumotlarni ehtimoliy-statistik qayta ishlash metodikasi Puasson normal taqsimot qonuniyatini qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

transport mashinasozligi uchun bo‘ylama, ko‘ndalang va aylantiruvchi kuchlarning ta‘sirini hisobga olgan holda fazoviy tizim sifatidagi murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotivlar aravachasi ramasining dinamik mustahkamlikka raqamli hisoblash usuli uning kuchlangan-deformatsiyalangan holatini baholash asosida ishlab chiqilgan;

oshirilgan harakat tezliklarida murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotivlar kuzovi bosh ramasi tebranishlarining matematik modeli ishlab chiqilib, uning asosida modernizatsiya qilingan VL80 seriyali elektrovoz bosh ramasining hisob rejimlardagi maksimal kuchlanish chegaralari bo‘lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli yordamida asoslangan;

modernizatsiya qilingan lokomotiv kuzovi bosh ramasining yon devoriga payvandlangan silindrsimon detal ko‘rinishidagi kuchaytiruvchi po‘lat qoplagich o‘rnatilgan joyda kontakt harorat maydonlarining o‘zgarish jarayonini uch o‘lchamli modellashtirish uchun umumlashtirilgan chekli elementlar nazariyasiga asoslangan matematik modeli va raqamli usuli ishlab chiqilgan;

hisob rejimlarida VL80 elektrovozi bosh ramasining siqilish va cho‘zilishida avtotirkama o‘qi bo‘ylab ta‘sir etuvchi ko‘ndalang kuchlar ta‘sirini hisobga olgan holda elektrovoz kuzovi bosh ramasini hisoblashga mo‘ljallangan chekli element modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli hisob uchun mo‘ljallangan dasturlar asosida kuzovning bosh ramasi va lokomotivlar aravachalari ramalarining zo‘riqqan-deformatsiyalangan holatini kvazistatik va dinamik modellashtirish imkonini beradigan hisoblash usuli asosida elektrovozlarning xizmat muddatini uzaytirish maqsadida kapital tiklovchi ta‘mirda ularni modernizatsiya qilishning yangi uslubi taklif etildi;

lokomotivlarni ta‘mirlash zavodlarida amalga oshiriladigan ta‘mir turlarida aravachalarni stend sinovlaridan o‘tkazish maqsadida quvvatni g‘ildirak juftliklariga elektr uzatish orqali lokomotivlar aravachalari ramalarini dinamik mustahkamlikka

sinashga mo'ljallangan stendning yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi (O'zbekiston Respublikasining ixtirolar uchun beriladigan IAP 06795-sonli patenti, 2022-yil 5-fevralda e'lon qilingan, 3-sonli byul.);

kapital tiklovchi ta'mir jarayonida lokomotivlarni modernizatsiya qilishda qo'llanadigan yangi "VL80s elektrovozlaridan foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida ularni ekspert texnik diagnostikalash metodikasi" ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi materiallar qarshiligining zamonaviy standart usullari, mashinalarning dinamikasi va mustahkamligi, shuningdek raqamli usullar, jumladan Furye usuli, bo'lak-chizikli approksimatsiyalash usuli, iteratsiya usuli, chegaraviy elementlar usuli (the Boundary Element Technology)ning qo'llanilganligi, shuningdek nazariy hamda amaliy tadqiqotlar natijalari va ularning o'zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati oshirilgan harakat tezliklarida kontakt dinamik va issiqlik yuklanishlari ta'siri, shuningdek yuklanishning bo'ylama, ko'ndalang va aylantiruvchi tashkil etuvchilarini hisobga olgan holda murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotiv kuzovi bosh ramasi va aravachalarning rama konstruksiyalari tebranishlari, aynan VL80s seriyali elektrovozlar uchun dinamik modellarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati "VL80s elektrovozlaridan foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida ularni ekspert texnik diagnostikalash metodikasi"ning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan dinamik modellar va algoritmlar lokomotivlarning xizmat muddatini uzaytirish maqsadida kapital tiklovchi ta'mir jarayonida ularni modernizatsiya qilishda keng qo'llanilishi mumkin. Elektrovozlar rama konstruksiyalarining dinamik parametrlarini hisoblash bo'yicha yaratilgan usullar va vositalardan elektrovozlar va teplovozlarning yangi konstruksiyalarini loyihalashda hamda modernizatsiya qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transport mashinasozligi uchun murakkab konfiguratsiyaga ega lokomotivlarning rama konstruksiyalarini dinamik mustahkamlikka hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yangi "VL80 seriyali elektrovozlar aravachalari ramalarini kapital tiklovchi ta'mir jarayonida kuchaytirish va "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK sharoitida ularning xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha yo'riqnoma" hamda "VL80 seriyali elektrovozlar kuzovlarining bosh ramasini kuchaytirish bo'yicha yo'riqnoma" kapital tiklovchi ta'mir jarayonida ularning xizmat muddatini uzaytirish uchun "O'ztemiryo'lmashta'mir" UKga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023-yil 16-iyundagi 4/4113-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu Yo'riqnomalarni joriy qilish natijasida aravachalar ramalari va VL80 seriyali elektrovozlar kuzovlari bosh ramalari detallarining avariya buzilishi ehtimolini kamaytirish hamda ularning xizmat muddatini 8-10 yilga uzaytirish imkoniyati yaratilgan;

takomillashtirilgan "VL80s elektrovozlaridan foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida ularni ekspert texnik diagnostikalash metodikasi" "O'zbekiston temir yo'llari" AJga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining

2023-yil 16-iyundagi 4/4113-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu metodikani joriy qilish natijasida elektrovozlarning dinamik tavsiflarini yaxshilash, kapital tiklovchi ta'mir jarayonida lokomotivlarni modernizatsiya qilishda elektrovozlarning ramalarining tayanch konstruksiyalari chidamliligi va ishonchligini oshirish imkoni paydo bo'lgan;

kapital tiklovchi ta'mir jarayonida elektrovozlarning xizmat muddatini uzaytirish maqsadida ularni modernizatsiya qilishning yangi usuli "O'ztemiryo'lmashta'mir" UKga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023-yil 16-iyundagi 4/4113-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu usul asosida 3VL80s elektrovozlarning 9 ta seksiyasini modernizatsiya qilish natijasida rama konstruksiyalari xizmat muddatining uzaytirilganligi hisobiga 2022-yilda 678 mln. so'mlik iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 24 ta ilmiy-texnik anjumanda, jumladan 20 ta xalqaro (shulardan 8 tasi Scopus bazasida indeksatsiyalangan) va 4 ta respublika anjumanida muhokama qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 6 ta xorijiy ilmiy jurnallarida nashr etilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligining ixtirolar uchun beriladigan 2 ta Patenti hamda EHM dasturi uchun 2 ta Guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 148 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti keltirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Lokomotivlar tayanch ekvivalent karkasining tebranishlari nazariyasi rivojlanishining hozirgi holatini tizimli tahlil qilish va VL80s elektrovozlarining nosozliklari boʻyicha ekspluatatsion maʼlumotlarni ehtimoliy-statistik qayta ishlash”** deb nomlangan birinchi bobida aravachalar ramalari va lokomotiv kuzovlarining bosh ramalari tarkibiy qismlarining mustahkamligi va ishonchliligini oshirish maqsadida qoldiq resursini aniqlash va modernizatsiya qilish boʻyicha jahon ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan, VL80s elektrovozlarining nosozliklari boʻyicha ekspluatatsion maʼlumotlarni ehtimoliy-statistik qayta ishlash amalga oshirilgan, lokomotiv aravachalari va kuzovlari ramalarini mustahkamlikka va charchoq boʻyicha dinamik sinashlar uchun stendlarning istiqbolli loyihalari boʻyicha patent adabiyotlari sharhi keltirilgan.

Mavjud lokomotiv parkining ishga yaroqlilik holatini saqlash maqsadida “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ “Oʻzbekiston” lokomotiv deposining VL80 va 3VL80s elektrovozlarining aravacha ramalari va kuzovi bosh ramasi nosozliklari boʻyicha ekspluatatsion maʼlumotlar ehtimoliy-statistik tahlil qilindi (1-rasm).

Umumiy holda VL80 va 3VL80s elektrovozlarining 2017-2022-yy. nosozliklari quyidagicha taqsimlangan (% larda):



1-rasm.. “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ “Oʻzbekiston” lokomotiv deposi maʼlumotlariga asosan 2017-2022-yillar davrida VL80 va 3VL80s elektrovozlarining nosozliklari taqsimoti

Tadqiqotlar natijalariga asosan quyidagi umumiy xulosalar olindi:

1. 2.02.2017-yildan 11.10.2022-yilgacha boʻlgan davrda 3VL80s va VL80 turidagi elektrovozlar mexanik qismi boʻyicha jami 153 ta nosozlik (100 %) qayd etilgan boʻlib, ular charchoq yoriqlari sababli yuzaga kelgan:

a) kuzov bosh ramasida – 20,747% (jumladan, kuzov shkvoren balkalarida – 9,43 %; kuzov boʻylama balkalarida – 7,547%; kuzov ramasi markaziy balkasida – 3,77 %);

b) aravacha ramalarida – 54,71 % (aravacha ramasi shkvoren balkasidagi darzlar

– 18,86 %; aravacha ramasi bo‘ylama balkasida – 24,53 %; aravacha ramasi konturi bo‘yicha darzlar – 11,32 %);

c) aravachaning shkvoren bruslarida (11,32 %).

2. Foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi sezilarli dinamik va harorat ta’sirlari charchoq yoriqlarining hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu bois hatto modernizatsiya jarayonida yoriqlar payvandlanganidan so‘ng ham yangilari hosil bo‘ladi. Shu tariqa elektrovoz aravachasi va kuzovi ramalarining ishonchliligi va xavfli kesimlardagi mustahkamligini oshirish maqsadida maxsus shakldagi kuchaytiruvchi qoplagichlarni o‘rnatish yo‘li bilan modernizatsiyalashning dolzarbligi asoslangan.

“Transport mashinasozligi uchun yuqori tezliklarda lokomotiv aravachalarining murakkab konfiguratsiyali rama konstruksiyalari matematik modelini ishlab chiqish” deb nomlangan ikkinchi bobda foydalanishdagi lokomotiv aravachasi ramasining hisoblash sxemasi va hisobiy yuklanish rejimlari asoslangan.

Lokomotivning real foydalanish sharoitlariga asosan aravacha ramasi tayanch ekvivalent balkasining uzunligi bo‘yicha kesimi, massasi va egilish bikrligi o‘zgaruvchanligi hisobga olingan, bu esa taklif etilayotgan modelning mavjudlaridan farqli jihatlarni ifodalaydi. Raqamli hisoblar uchun O‘zbekistonda foydalanishda bo‘lgan VL80s elektrovozi aravachasi ramasi olingan.

VL80s elektrovozining modernizatsiya qilingan aravacha ramasining kuchaytiruvchi qoplagichlar o‘rnatilgan hisobiy kesimlari va umumiy ko‘rinishi mos ravishda 2-rasmda keltirilgan, ularning chizmalari foydali xizmat muddatini oshirish bilan kapital tiklovchi ta’mirni o‘tkazishda modernizatsiya qilish uchun taklif etilgan.

Mazkur model uchun elektrovoz aravachasi ramasi yon balkasining ko‘taruvchi karkasi parametrlari 8-darajali polinomlar ko‘rinishida ifodalangan:

- elektrovoz aravachasi ramasi yon balkasining massasi (kg/m):

$$m_T(X) = m_0 (a_0 + a_1 X + a_2 X^2 + \dots + a_n X^n), \quad (1)$$

bunda elektrovoz aravachasi ramasi yon balkasining uzunligi 4658 mm, X koordinatasi esa $0 \leq X \leq 4,658$ m chegaralarda o‘zgaradi;

- aravacha ramasi yon balkasi kesimlarini X o‘qi bo‘ylab keltirilgan inersiya momentlari - $I_X(sm^4)$:

$$I_X(X) = I_0 (b_0 + b_1 X + b_2 X^2 + \dots + b_n X^n); \quad (2)$$

- keltirilgan egilish bikrligi:


$$\mathcal{H}_H(X) = E I_0 (b_0 + b_1 X + b_2 X^2 + \dots + b_n X^n), \quad (3)$$

n (polinomlar darajasi) ning maqbul qiymati EHM yordamida bo‘lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli orqali elektrovoz aravachasi ramasi yon balkasining real o‘lchamlari asosida tanlanadi. VL80s elektrovozi uchun raqamli hisoblarda $n = 8$ qiymati qabul qilingan (bunda xatolik $\delta = 0,001$ ga teng).

Elektrovoz aravachasi ramasi yon balkasi ekvivalent karkasining zo‘riqqan-deformatsiyalangan holati tahlili uchun o‘zgaruvchan kesimli to‘g‘ri sterjenlarning egilish tebranishlari differensial tenglamalaridan foydalanilgan (bo‘ylama va burama tebranishlarning boshqa tashkil etuvchilarga nisbatan kichikligi sharoitida):

$$m_T(X) \frac{\partial^2 W(X,t)}{\partial t^2} + EI_X(X) \frac{\partial^4 W(X,t)}{\partial X^4} + E \frac{\partial^2 I_X(X)}{\partial X^2} \cdot \frac{\partial^2 W(X,t)}{\partial X^2} = \eta_H(X,t) + P_D(X,t), \quad (4)$$

bu yerda $W(X,t)$ – aravacha ramasi yon balkasi kesimlarining egilish tebranishlari; $P_D(X,t)$ – vertikal dinamik kuch;



2-rasm. Modernizatsiya qilingan VL80s elektrovozining kuchaytiruvchi qoplagichlar va hisoblash kesimlari ko'rsatilgan aravacha ramasi:

- a) ko'ndalang kesimi; b) rejadagi ko'rinishi 1 - ramaning chekka brusi; 2 - rama yon balkasidagi 50x12 o'lchamli kuchaytiruvchi qoplagich; 3 - shkvoren brusi; 4 - shkvorenning sharsimon bog'lanish qutisi; 5 - shkvoren; 6 - yuksizlantirishga qarshi qurilma roligi ostiga qo'yiladigan kuchaytiruvchi qoplagich; 7 - richagli tormoz uzatmasi osmasi kronshteyni; 8 - buksa kichik kronshteyni; 9 - rama yon balkasidagi 50x12 o'lchamli kuchaytiruvchi qoplagich; 10 - shkvorenning sharsimon bog'lanish qutisidagi kuchaytiruvchi qoplagich; 11 - rama yon balkasidagi 50x12 o'lchamli kuchaytiruvchi qoplagich; 12 - kuzov lyulkali osmasi sterjeni kronshteyni; tormoz silindrini mahkamlash kronshteyni; 13 - gidravlik so'ndirgichlarni mahkamlash kronshteyni; 14 - buksa katta kronshteyni.

$\eta_H(X, t)$ – rels yo'li notekisligining o'zgarish funksiyasi:

$$\eta_H(X, t) = \sin \frac{\pi X}{L_H} (C \cdot \eta_0(1 - \cos \omega t) + \eta_0 \beta \omega \sin \omega t). \quad (5)$$

So'ng, hisoblashlar EHMda bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash va iteratsiyalar usullari orqali *MATHCAD 14* dasturiy muhitida bajarilgan. Masalani yechish uchun VL80s elektrovozi aravachasi ramasining yon balkasi, $0 \leq X \leq 4,658$ o'zgarish shartiga asosan 20 ta nuqtaga bo'lingan. Har bir uchastka uchun *CONST* o'zgarimas kattalik bo'lgan R_{iK} koeffitsiyentlari kiritilgan, bunda $k = 1, 2 \dots 20, n = 8$:

$$R_{1K} = 2 \cdot E \cdot I_0 \cdot (b_2 + 3b_3 + \dots + 28b_8 \cdot X^8); \quad (6)$$

$$R_{2K} = I_0 \cdot (b_0 + b_1 X + b_2 X^2 + \dots + b_8 X^8); \quad (7)$$

$$R_{3K} = m_T(X) = m_0(a_0 + a_1X + a_2X^2 + \dots + a_8X^8). \quad (8)$$

Natijada har bir k -uchastka uchun o'zgarmas koeffitsiyentli tenglamalar olingan:

$$R_{1K} \cdot \frac{\partial^2 W(X,t)}{\partial X^2} + R_{2K} \cdot \frac{\partial^4 W(X,t)}{\partial X^4} + R_{3K} \cdot \frac{\partial^2 W(X,t)}{\partial t^2} = \eta_H(X,t) + P_{DK}(X,t). \quad (9)$$

Bir jinsli differensial tenglamaning (9) yechimi EHMdan foydalangan holda bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli bo'yicha linearizatsiyalash orqali olingan, raqamli tadqiqotlar uchun Gaussning matritsa usuli, iteratsiyalar usuli va chegaraviy elementlar usulidan (the Boundary Element Technology) foydalanilgan. Raqamli tadqiqotlar C# dasturlash tili va *MATHCAD 14 (15)* dasturlash muhitlarida bajarilgan.

O'tkazilgan nazariy raqamli tadqiqotlar natijasida ikkinchi bob bo'yicha quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish mumkin:

1. VL80s elektrovozi ramasing kvazistatik hisobi V – V, D – D, E – E kesimlar eng ko'p yuklanganligini ko'rsatdi (3-rasm). Ushbu kesimlar dinamik charchoq mustahkamligi bo'yicha hisobiy rejimlarga dosh bera olmaydi, shuning uchun ularni St3 po'latidan tayyorlangan maxsus shaklli kuchaytiruvchi qoplagichlar o'rnatish yo'li bilan modernizatsiya qilish zarur.

2. VL80s elektrovozi aravacha ramasi bo'ylama balkasining D – D xavfli kesimidagi mustahkamligini aniqlash uchun bo'ylama va ko'ndalang balkalarning ulanish joyida superpozitsiya mezoni bo'yicha yuklamalarning eng nomaqbul birgalikdagi ta'sirida statika va dinamikada yuzaga keluvchi barcha kuchlanishlar umumlashtirilgan. Raqamli hisoblashlar natijalari 1-jadvalda keltirilgan (VL80s elektrovozining konstruktiv tezligi uchun - $V_{EK} = 110$ km/soat).

1-jadval

VL80s elektrovozi aravacha ramasi bo'ylama balkasi D – D xavfli (eng ko'p yuklangan) kesimidagi umumiy kuchlanishlar

№	Yuklama turi	Qo'zg'alish ($V_E = 0$ km/soatda)	Qiyaliksiz burilishda harakatlanish	Qiyalikka ega burilishda harakatlanish	Konstruktiv tezlik bilan harakatlanish
1.	Og'irlik yuklamasi	48,425	48,425	48,425	48,425
2.	Burilishda harakatlanishda	0	13,984	41,292	55,276
3.	Tortuv rejimida ta'sir etuvchi	8,76	6,168	6,54	5,626
4.	Egri-simmetrik yuklama	3,464	3,464	3,464	3,464
5.	Vertikal dinamik yuklama	0	7,958	9,131	10,921
6.	Umumiy yuklama, MPa	60,654	80,376	108,48	123,71

3. VL80s elektrovozi aravacha ramasi bo'ylama balkasining modernizatsiya qilingan D – D kesimi uchun raqamli hisoblashlar natijalariga asosan $V_{EK} = 110$ km/soat konstruktiv tezlikda eng yuklangan kesimdagi umumiy kuchlanishlar mustahkamlik chegarasidan ortmasligi aniqlandi va $\sigma_{sum} = 123,71$ MPa ga teng, bunda mazkur kesim uchun mustahkamlik chegarasi:

$$n = \frac{[\sigma_{доп}]}{\sigma_{сум}} = \frac{240}{123,71} = 1,94. \quad (10)$$

Hisoblash asosida mustahkamlik zaxirasi koeffitsiyenti 1,6 dan katta, mazkur kesim mustahkamlik zaxirasi bo'yicha shartni qanoatlantiradi.

Bunda aravacha ramasi yon balkasi materiali eskirishini hisobga olganda, yuzaga keluvchi umumiy kuchlanishlar quyidagicha bo'lishi lozim

$$(\sigma_y + \sigma_{CT}) \leq [\sigma] = 218,18 \text{ MPa}, \quad (11)$$

Mustahkamlik zaxirasi ko'effitsiyenti material eskirishini hisobga olgan holda quyidagiga teng bo'ladi

$$n_{\text{trap}} = \frac{[\sigma]}{\sigma_{\text{сум}}} = \frac{218,18}{123,71} \approx 1,764. \quad (12)$$

4. Charchoq mustahkamligini tekshirishda o'zgaruvchan asimmetrik kuchlanish ta'siridagi aravacha ramasi elementlari kuchlanish konsentratorlari mavjudligi va boshqa qator sabablarga ko'ra qo'shimcha mustahkamlik zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Bunda chidamlilik chegarasi ruxsat etilgan kuchlanishning o'zgaruvchan tashkil etuvchisi k_σ marta kamayishi hisobiga pasayadi.

Detalning charchoq mustahkamligi pasayishi ko'effitsiyenti namuna bilan taqqoslanganda $k_\sigma = 2,4$.

Materialning sikl asimmetrikligiga sezgirligi ko'effitsiyenti

$$\psi_\sigma = \frac{2\sigma_T - \sigma_0}{\sigma_0} = 0,6, \quad (13)$$

bu yerda $\sigma_T = 200 \text{ MPa}$, $\sigma_0 = 250 \text{ MPa}$, $\sigma_m = 69,778 \text{ MPa}$.

Bunda chidamlilik chegarasi:

$$\sigma_{\text{ББИH}} = \frac{\sigma_T}{k_\sigma} + \left(1 - \frac{2\sigma_T - \sigma_0}{\sigma_T k_\sigma}\right) \sigma_m, \quad (14)$$

bu yerda raqamli hisoblarga muvofiq $\sigma_{\text{ББИH}} = 131,36 \text{ MPa}$.

Maksimal kuchlanishni hisobga olgan holda charchoq mustahkamligi zaxirasi

$$n_\sigma = \frac{\sigma_{\text{ББИH}}}{\sigma_m + \sigma_{\text{aПП}}} = 1,427, \quad (15)$$

bu yerda $\sigma_{\text{aПП}} = 22,216 \text{ MPa}$ – keltirilgan amplituda kuchlanishi, u quyidagi tenglamaga asosan hisoblanadi:

$$\sigma_{\text{aПП}} = 2,17 \sqrt[6]{(\sum_i R_i)}, \quad (16)$$

bu yerda R_i – rama detallari dinamik yuklanishi hisobiy asimmetrik siklining keltirilgan amplituda kuchlanishi, *MATHCAD 15* dasturlash muhiti uchun tuzilgan raqamli hisoblashlar dasturi asosida hisoblanadi.


5. VL80s elektrovozi aravacha ramasi kesimlari bo'yicha bajarilgan raqamli tadqiqotlar natijasida kuchaytiruvchi qoplagichlarni o'rnatish yo'li bilan amalga oshirilgan modernizatsiyani hisobga olgan holda charchoq mustahkamlik yetarli ekanligi aniqlandi, chunki u 1,4 minimal qiymatdan katta.

Natijada iterasiyalar va bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash usullari asosida uyg'unlashgan tahliliy-raqamli usul ishlab chiqilgan. Ushbu amaliy muhandislik usuli elektrovoz aravachalari yon balkalarining garmonik yuklanishlarda yuzaga keluvchi zo'riqqan-deformatsiyalangan holati bo'yicha dinamik hisoblarni bajarish imkonini beradi.

“VL80 elektrovozi kuzovi bosh ramasing po'lat qoplagichlar bilan payvandlash orqali kuchaytirilgandan keyingi zo'riqqan-deformatsiyalangan holatini hisoblash” deb nomlangan uchinchi bobda VL80 elektrovozining modernizatsiya qilinayotgan bosh ramasi maksimal kuchlanishlari va charchoq mustahkamligi zaxirasi ko'effitsiyentlarining raqamli hisoblari amalga oshirilgan, VL80 elektrovozining modernizatsiya qilinayotgan bosh ramasiga bo'ylama kuchlar ta'siri, og'irlik va inersiya momentlari o'zgaruvchanligida dinamik mustahkamlikka hisoblash usuli ishlab chiqilgan.

Lokomotiv kuzovi murakkab konfiguratsiyali ekvivalent bosh ramasing zo'riqqan-deformatsiyalangan holatini tahlil qilishda o'zgaruvchan kesimli to'g'ri

sterjenlardagi egilish va bo'ylama tebranishlarining differensial tenglamalaridan foydalanilgan (3-rasm):



3-rasm. Elektrovoz kuzovi ramasing hisobiy kesimlari

$$m_K(X) \frac{\partial^2 U(X, t)}{\partial t^2} - E \frac{\partial F(X)}{\partial X} \cdot \frac{\partial U(X, t)}{\partial X} - EF(X) \frac{\partial^2 U(X, t)}{\partial X^2} =$$

$$= N_{\Delta}(X, t) + E \frac{\partial I_X(X)}{\partial X} \cdot \frac{1}{R^2} + 2EI_X(X) \frac{1}{R} \frac{\partial^3 W(X, t)}{\partial X^3}, \quad (17)$$

$$m_K(X) \frac{\partial^2 W(X, t)}{\partial t^2} + EI_X(X) \frac{\partial^4 W(X, t)}{\partial X^4} + E \frac{\partial^2 I_X(X)}{\partial X^2} \cdot \frac{\partial^2 W(X, t)}{\partial X^2} =$$

$$= P_{\Delta}(X, t) + \frac{E}{R} \left[\frac{\partial^2 I_X(X)}{\partial X^2} + 2I_X(X) \cdot \frac{\partial^3 U(X, t)}{\partial X^3} \right]. \quad (18)$$

(17) – (18) tenglamalar tizimini yechishda Simpson usuli bo'yicha linearizatsiyalash, shuningdek Furrye usuli va Laplasning vaqt bo'yicha operatsion o'zgartirish usuli qo'llanilgan, raqamli tadqiqotlar bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash va chegaraviy elementlar usullari orqali MATHCAD 15 dasturiy muhitida bajarilgan. Boshlang'ich shartlar nolga teng, chegaraviy shartlar esa chekka qismlari qayishqoq mahkamlangan ko'rinishda qabul qilingan.

Elektrovoz ramasing har bir k – uchastkasi uchun $X = X_K$ da quyidagi ko'rinishdagi tenglamalar tizimini tuzamiz

$$\frac{\partial^2 U(X, t)}{\partial t^2} - A_{K1} \cdot \frac{\partial U(X, t)}{\partial X} - B_{K1} \frac{\partial^2 U(X, t)}{\partial X^2} = C_{K1} \cdot \sin n \omega t +$$

$$+ D_{K1} + E_{K1} \cdot \frac{\partial^3 W(X, t)}{\partial X^3}, \quad (19)$$

$$\frac{\partial^2 W(X, t)}{\partial t^2} + A_{K2} \cdot \frac{\partial^4 W(X, t)}{\partial X^4} + B_{K2} \cdot \frac{\partial^2 W(X, t)}{\partial X^2} =$$

$$= C_{K2} \cdot \cos n \omega t + D_{K2} + E_{K2} \cdot \frac{\partial^3 U(X, t)}{\partial X^3}. \quad (20)$$

Shu tariqa, Furye usuli va Laplasning vaqt bo'yicha operatsion o'zgartirish usulini qo'llash natijasida elektrovoz kuzovi ramasi yon balkasining (19) va (20) ko'rinishidagi umumiy yechimi aniqlangan

$$W(X, t) = \sum_{k=1}^{\infty} W(X) * \left\{ \frac{C_{K2}}{W(X)} \cdot \frac{\cos n \omega t - \cos \lambda_{2n} t}{\lambda_{2n}^2 - (n\omega)^2} + W_0 \cdot \cos \lambda_{2n} t + \left[\frac{D_{K2}}{W(X)} + V_{0\Pi} \right] * \frac{1}{\lambda_{2n}} \cdot \sin \lambda_{2n} t \right\}, \quad (21)$$

$$U(X, t) = \sum_{k=1}^{\infty} U(X) * \left[\frac{C_{K1}}{U(X)} \cdot \frac{n\omega \sin \lambda_{1n} t - \lambda_{1n} \sin n\omega t}{n\omega \cdot \lambda_{1n} \cdot (\lambda_{1n}^2 - (n\omega)^2)} + U_0 \cdot \cos \lambda_{1n} t + \left[\frac{D_{K1}}{U(X)} + V_0 \right] * \frac{1}{\lambda_{1n}} \cdot \sin \lambda_{1n} t \right], \quad (22)$$


bu yerda $W(X)$ va $U(X)$ – xususiy funksiyalar, ularni quyidagi tenglamalar bo'yicha hisoblash mumkin:

$$W(X) = \frac{\aleph_1 \cdot (1 + \omega_k^2 / \omega_B^2) + \omega_B^2}{\omega_k^3} \cdot \text{sh} \omega_k X + \text{ch} \omega X + \sin \omega_B X + \omega_k^2 / \omega_B^2 \cos \omega_B X, \quad (23)$$

$$U_n(x) = A_n \cos a_n x + B_n \sin a_n x. \quad (24)$$

Natijada elektrovoz kuzovining murakkab konfiguratsiyali bosh ramasi yon balkasining kesimi, massasi, egilish va bo'ylama bikrlilari o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda birgalikdagi egilish-bo'ylama tebranishlarini tadqiq qilish uchun tahliliy-raqamli yechim olindi.

VL80 elektrovozi kuzovi bosh ramasi kesimlari bo'ylab kuchaytiruvchi qoplagichlar o'rnatilgandan (payvandlangandan) so'ng (4-rasm), raqamli hisoblash dasturidan foydalangan holda hisobiy rejimlar uchun maksimal kuchlanishlar va charchoq mustahkamligi zaxirasi koeffitsiyentlari aniqlandi.




4-rasm. VL80 elektrovozi kuzovi ramasi kronshteynlarini kuchaytirish uzeli 15TN.121.032 va 8TN.121.044 (figurali profilga ega kuchaytiruvchi qoplagichlarni o'rnatish)


Shuningdek, VL80 elektrovozi bosh ramasi kuchaytirish yo'li bilan modernizatsiya qilingandan so'ng, hisobiy rejimlarda maksimal kuchlanishlari bo'yicha umumlashtirilgan xulosalar keltirilgan.

Olingan natijalarni bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli yordamida tekshirish uchun Solid Works kompyuterda modellashtirish dasturiy muhitidan

foydalangan holda chegaraviy elementlar usuli orqali hisoblashlar bajarilgan (5-rasm).



5-rasm. VL80 elektrovozi ramasining chekli elementli modeli



6-rasm. VL80 elektrovozi ramasida D-D kesimga mos keluvchi kuchlangan zona

2-jadval

Chegaraviy elementlar usuli bilan modellashtirish natijasida va ishlab chiqilgan bo'lak-chiziqli approksimatsiyalashga asoslangan usulda olingan qiymatlar farqi

№ t/r	Rejim nomi		Maksimal kuchlanish, MKLA bo'yicha aniqlangan, MPa	Maksimal kuchlanish, MKE bo'yicha aniqlangan, MPa	Farq, %
1.	Avtotirkama o'qi bo'ylab 250 t (2.5 MN) kuch bilan siqilish	Qo'shimcha kuchlanishlar	-198,5	-215,35	7.2
		Og'irliklari bilan jami yig'indisi	-211,8	-218,2	3
2.	Avtotirkama o'qi bo'ylab 250 t (2.5 MN) kuch bilan cho'zilish	Qo'shimcha kuchlanishlar	+198,5	+216,3	8
		Og'irliklari bilan jami yig'indisi	+215,3	+238,3	10

Ikki usul bo'yicha olingan natijalar taqqoslanganda, bosh ramaning eng yuklangan kesimlaridagi umumiy kuchlanishlar qiymatlari deyarli bir xilligi aniqlandi (6-rasm). Natijalar 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, tanlab olingan kesimlardagi farq 7-9% dan oshmaydi.

“Transport mashinasozligi uchun kontaktli dinamik yuklanishlarni hisobga olgan holda murakkab konfiguratsiyali lokomotivlarning rama konstruksiyalarini dinamik mustahkamlikka hisoblash usuli” deb nomlangan to'rtinchi bobda transport mashinasozligi uchun lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali rama konstruksiyalari, kontaktli dinamik va issiqlik yuklamalari, shuningdek tortuv kuchlarining bo'ylama, ko'ndalang va burovchi tashkil etuvchilari ta'sirini hisobga olgan holda, aynan VL80s elektrovozining bosh va aravacha ramalari uchun dinamik mustahkamlikka hisoblashning umumlashgan usullari ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan muhandislik usuli lokomotivlarning modernizatsiya qilingan kuchaytirilgan tayanch karkasli aravacha ramasi va kuzov bosh ramasining zo'riqqan-deformatsiyalangan holatini raqamli hisoblash dasturi asosida kvazistatik va dinamik modellashtirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan model uchun lokomotiv kuzovining murakkab konfiguratsiyali modernizatsiya qilingan ramasining ekvivalent tayanch karkasi parametrlari o'zgaruvchan funksiyalar ko'rinishida qabul qilinadi:

- lokomotivning modernizatsiya qilingan murakkab konfiguratsiyali kuzovi ramasi kesimlari bo'yicha o'zgaruvchan massa (kg/m) $m_{kl}(x)$, (25) tenglamaga asosan aniqlanadi, bunda yig'iq Q_i va tarqoq q_i yuklamalarning kvazistatik taqsimlanishida amalga oshirilgan hisoblashlar asosida olingan murakkab xarakterli hisobga olinadi (hisoblash namunasi sifatida VL80s elektrovozi ko'rib chiqilgan):

$$m_{kl}(x) = \begin{vmatrix} q_{11} & q_{12} & q_{13} & q_{14} & \dots & q_{1i} \\ q_{21} & q_{22} & q_{23} & q_{24} & \dots & q_{2i} \\ q_{31} & q_{32} & q_{33} & q_{34} & \dots & q_{3i} \\ q_{41} & q_{42} & q_{43} & q_{44} & \dots & q_{4i} \\ q_{51} & q_{52} & q_{53} & q_{54} & \dots & q_{5i} \\ q_{61} & q_{62} & q_{63} & q_{64} & \dots & q_{6i} \\ q_{71} & q_{72} & q_{73} & q_{74} & \dots & q_{7i} \\ q_{81} & q_{82} & q_{83} & q_{84} & \dots & q_{8i} \end{vmatrix}; \quad (25)$$

- ko'ndalang kesimning o'zgaruvchan maydoni $F_{kl}(x)$, (26) tenglama bo'yicha aniqlanadi, bunda, masalan, VL80s elektrovozi bosh ramasining uzunligi 15,2 m, x koordinatasi esa $0 \leq x \leq 15,2$ m oraliqda o'zgaradi:

$$F_{kl}(x) = \begin{vmatrix} f_{11} & f_{12} & f_{13} & f_{14} & \dots & f_{1i} \\ f_{21} & f_{22} & f_{23} & f_{24} & \dots & f_{2i} \\ f_{31} & f_{32} & f_{33} & f_{34} & \dots & f_{3i} \\ f_{41} & f_{42} & f_{43} & f_{44} & \dots & f_{4i} \\ f_{51} & f_{52} & f_{53} & f_{54} & \dots & f_{5i} \\ f_{61} & f_{62} & f_{63} & f_{64} & \dots & f_{6i} \\ f_{71} & f_{72} & f_{73} & f_{74} & \dots & f_{7i} \\ f_{81} & f_{82} & f_{83} & f_{84} & \dots & f_{8i} \end{vmatrix}; \quad (26)$$


- modernizatsiya qilingan rama kesimlarining Ox o'qi bo'yicha o'zgaruvchan inersiya momenti - $I_x(x)$ (sm^4):

$$I_x(x) = \begin{pmatrix} j_{11} & j_{12} & j_{13} & j_{14} & \dots & j_{1i} \\ j_{21} & j_{22} & j_{23} & j_{24} & \dots & j_{2i} \\ j_{31} & j_{32} & j_{33} & j_{34} & \dots & j_{3i} \\ j_{41} & j_{42} & j_{43} & j_{44} & \dots & j_{4i} \\ j_{51} & j_{52} & j_{53} & j_{54} & \dots & j_{5i} \\ j_{61} & j_{62} & j_{63} & j_{64} & \dots & j_{6i} \\ j_{71} & j_{72} & j_{73} & j_{74} & \dots & j_{7i} \\ j_{81} & j_{82} & j_{83} & j_{84} & \dots & j_{8i} \end{pmatrix}; \quad (27)$$

- modernizatsiya qilingan rama kesimlari bo'yicha o'zgaruvchan egilish bikrligi $\mathcal{K}_{bur}(x)$, quyidagi tenglamadan aniqlanadi:


$$\mathcal{K}_{bur}(x) = E I_x(x). \quad (28)$$

Bunda n (polinomlar darajasi) ning maqbul qiymati EHMda elektrovozlar ramasi yon balkasining real o'lchamlari bo'yicha bo'lak-chiziqli approksimatsiyalash usuli orqali tanlanadi. VL80s elektrovozi uchun raqamli hisoblashlarda $n = 8$ qiymati olingan, (bunda xatolik $\delta = 0,001$ ni tashkil etdi). Standart konstruksiyali VL80 elektrovozi kuzov ramasi kesimlarining vaqt davomida egilish tebranishlaridagi dinamik siljishlari o'zgarishi grafigi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. VL80 elektrovozi standart konstruksiyali kuzov ramasi kesimlarida vaqt bo'yicha egiluvchi tebranishlardagi dinamik siljishlar grafigi (o'rta qismida)

Usulning barcha bosqichlarini ta'riflash uchun yuqori harakat tezliklarida lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali modernizatsiya qilingan aravacha ramalari va kuzov bosh ramasi dinamik modeli bo'yicha raqamli tadqiqotlar uchun blok-sxema 8-rasmda keltirilgan.



Rasm. 8. Transport mashinasozligi uchun yuqori harakat tezliklarida lokomotivlarning murakkab konfiguratsiyali modernizatsiya qilingan aravacha ramalari va kuzov bosh ramasi modeli bo'yicha raqamli tadqiqotlar uchun blok-sxema

